

**MAKTABDA O'QIB TUSHUNISH KO'NIKMASINI
RIVOJLANTIRISH BO'YICHA METODIK TAVSIYALAR**

O'rolov Sardor Olimjon o'g'li

ToshDO'TAUning 3-kurs talabasi

+998948226678

Annotatsiya: *Ushbu maqolada o'qib tushunish ko'nikmasini shakllantirish va rivojlantirishda metodik yondashuvlarning o'rni yoritilgan. Matn bilan ishlash metodikasi, faol o'qish texnologiyalari, hamda amaliy mashg'ulotlar orqali o'quvchilarning tahliliy fikrlash, asosiy fikrni aniqlash, va matnga munosabat bildirish ko'nikmalarini shakllantirish usullari tahlil etiladi.*

Abstract: *This article highlights the role of methodological approaches in the formation and development of reading comprehension skills. Methods of working with text, active reading technologies, and practical exercises are analyzed to develop students' analytical thinking, main idea identification, and text response skills.*

Kalit so'zlar: *o'qib tushunish, metodika, ta'lim texnologiyalari, matn ustida ishlash, savol-javob, interfaol metodlar.*

Keywords: *reading comprehension, methodology, educational technologies, working on the text, questions and answers, interactive methods.*

Kirish

Zamonaviy ta'lim jarayonida o'quvchilarning mustaqil fikrlashi, axborotni tahlil qilish va uni to'g'ri anglay olish qobiliyatlarini shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu jarayonning markazida esa o'qib tushunish ko'nikmasi turadi. O'quvchi faqatgina matnni o'qib chiqishi emas, balki uni anglab, unga asoslangan xulosalarni chiqarishi zarur. Bu esa bevosita o'quvchilarning o'qib tushunish ko'nikmasini shakllantirishni taqozo etadi. O'qituvchi oldida turgan

muhim vazifalardan biri — o'quvchilarni matnni faqat o'qib chiqishga emas, balki uni tahlil qilish, tushunish va xulosa chiqarishga o'rgatishdir. Bu ko'nikmani rivojlantirish esa to'g'ri tanlangan metodik yondashuvga bog'liq.

O'qib tushunish ko'nikmasi — bu o'quvchining matn mazmunini anglab yetishi, asosiy va ikkinchi darajali fikrlarni ajrata olishi, tushunchalar o'rtasidagi bog'liqlikni anglashiga asoslangan metodik kompetensiyadir. Bu ko'nikmani shakllantirishda zamonaviy ta'lim metodlari, interfaol usullar va didaktik materiallar muhim rol o'ynaydi.

Quyidagi metodik yondashuvlar o'qib tushunish ko'nikmasini rivojlantirishda qo'llaniladi:

1. Reflektiv jurnal yuritish metodi

Har bir darsdan so'ng yoki o'qilgan matn asosida o'quvchilar o'z fikrlarini yozma ravishda ifoda etadilar. Bu jurnalga ular quyidagilarni yozadilar:

1	Matndan nimalarni tushundingiz?	
2	Qaysi joylar tushunish uchun qiyin bo'ldi?	
3	Qanday savollar paydo bo'ldi?	
4	Bu matn sizga nima berdi?	

Har darsda 5–10 daqiqa vaqt ajratiladi. O'qituvchi umumiy yo'nalish beradi va yuqoridagi jadvalni to'ldirtiradi.


Bu metod orqali o'quvchi o'z fikrini tuzish, tanqidiy yondashish, tushunmagan joylarini anglash va chuqur mushohada qilishni o'rganadi.

2. Vizual xaritalash (Mind Mapping)

O'quvchilar o'qigan matni asosida asosiy g'oyalarni markazga joylashtiradi va shu asosda bog'liq fikrlarni tarmoqlar orqali ifodalaydilar.

Matnni o'qib bo'lgach, sinf doskasiga markaziy fikr yoziladi.

O'quvchilar guruhlarda yoki yakka tartibda asosiy voqealar, personajlar, sabab-oqibat munosabatlarini ajratib chiqadilar va chizmaga joylashtiradilar.



Bu

metod orqali murakkab matnlarni tahlil qilish, umumlashtirish va mantiqiy bog'lanishlarni aniqlash osonlashadi. Vizual idrok kuchayadi.

3. "Savol-javob spirali" metodi

O'qituvchi savollarni bosqichma-bosqich murakkablashtirib beradi:

1-daraja: yuzaki tushunish (Kim? Qayerda? Qachon?)

2-daraja: sabab-oqibatni tahlil qilish (Nima uchun? Natijasi qanday?)

3-daraja: baholovchi va shaxsiy fikrlar (Siz qanday baholaysiz? Bu sizning hayotingizga qanday aloqador?)

O'quvchilar o'qilgan matn ustida chuqur o'ylashga o'rganadilar, tanqidiy fikrlash rivojlanadi.

4. RARE Strategiyasi (Read, Ask, Respond, Extend)

Har bir bosqich matn bilan mustahkam bog'langan:

Read – diqqat bilan matnni o'qish

Ask – savollar tuzish

Respond – o'z fikrini ifodalash

Extend – mavzuni real hayotga bog'lash

Har bir o'quvchidan matnga oid savollar tuzish so'raladi, keyin ular bu savollarga o'z fikrlarini yozma yoki og'zaki shaklda bildiradilar.

O'qish – savol – tahlil – amaliy bog'lanish zanjiri hosil bo'ladi. Bu esa o'quvchilarning mustaqil tafakkurini rivojlantiradi.

5. Juftlikdagi o'zaro intervyu (Pair Interview)

O'quvchilar juftlikka bo'linadi. Har bir juft matn bo'yicha bir-birlariga savollar beradi. Ular bu suhbatni yozib olib taqdim etishlari yoki og'zaki taqdim qilishlari mumkin.

Interaktiv muhit hosil bo'ladi. O'quvchilar nutqiy kompetensiyani va muloqot madaniyatini rivojlantiradilar.

6. Rolli o'yin (Role Play) asosida matnni jonlantirish

Matn asosida o'quvchilar personajlar o'rniga kirib, suhbatlar tuzadilar yoki sahnalashtiradilar. Ayniqsa badiiy matnlarni o'rganishda samarali. Har bir o'quvchi rol tanlab, personaj fikrini ifoda etadi.

Bu metod orqali matnga hissiy yondashuv kuchayadi, personajlarning ichki dunyosini tushunishga yordam beradi.

7. “Tushunishni to'xtatish” (Stop and Predict) strategiyasi

Matnni o'qiyotganda ma'lum nuqtada to'xtaladi va o'quvchilardan: “Keyingi voqea qanday rivojlanadi deb o'ylaysiz?” degan savol bilan taxmin qilish so'raladi.

O'quvchi e'tibor bilan o'qishga majbur bo'ladi, matnning mantiqiy davomiyligini tushunishga intiladi.

8. Fishbone diagrammasi (Sabab-natija tahlili)

Matndagi muammoli holat yoki asosiy voqea markazga yoziladi. Jadval ko'rinishida sabablar chapga, oqibatlar esa o'ng tomonga yoziladi.

Tarixiy, ijtimoiy yoki murakkab badiiy matnlar uchun ayniqsa foydali.

1	Sabab	Natija
2		
3		

Bu metod analitik fikrlashni kuchaytiradi, sabab-natijaviy munosabatni aniq tushunishga yordam beradi.

Xulosa

O'quvchilarda o'qib tushunish ko'nikmasini shakllantirish — bu faqat matnni o'qitish emas, balki uni tushunish, tahlil qilish, umumlashtirish, baholash va hayotiy kontekstda qo'llash kabi ko'p bosqichli kognitiv jarayonni rivojlantirishni anglatadi. Mazkur maqolada ko'rib chiqilgan metodlar — reflektiv jurnal, vizual xaritalash, savol-javob spirali, RARE strategiyasi, juftlikdagi intervyu, rolli o'yinlar, "Tushunishni to'xtatish" hamda fishbone diagrammasi — o'qish jarayonini faollashtiruvchi, o'quvchini markazga qo'yuvchi va ularning mustaqil fikrlashini rag'batlantiruvchi samarali usullardandir.

An'anaviy yondashuvlar ko'pincha faktlarni eslab qolishga yo'naltirilgan bo'lsa, bu metodlar esa o'quvchining tafakkurini harakatga keltirish, metakognitiv nazoratini oshirish, tanqidiy va ijodiy fikrlashni rivojlantirishga xizmat qiladi. Bunday usullar yordamida o'quvchilar nafaqat matn mazmunini anglaydilar, balki uni hayotiy voqelik bilan bog'lab, o'z fikrlarini erkin ifodalaydilar.

Shu bois, maktab amaliyotida ushbu metodlarning bosqichma-bosqich, tizimli va integratsiyalashgan holda joriy etilishi o'quvchilarning funksional savodxonligini oshirishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. G'ulomov A., Qodirov M., Ernazarova M., va boshq. Ona tili o'qitish metodikasi. – T.: "Fan va texnologiya", 2012, 380 bet.
2. D.N. Yuldasheva. "O'zbek tilini o'qitish metodikasi". – Buxoro: "Sadriddin Salim Buxoriy" Durdona nashriyoti, 2021. – 424 b.
3. B.To'xliyev, M. Shamsiyeva, T. Ziyodova. O'zbek tili o'qitish metodikasi. O'quv qo'llanma. O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg'armasi nashriyoti, T.: 2006. 192 b.
4. G.A. Asilova. Ilmiy tadqiqot faoliyati asoslari. Uslubiy qo'llanma. – T., 2020. – 128 b.
5. Xalqaro tadqiqotlarda o'quvchilarning o'qish savodxonligini baholash (Ona tili va adabiyot fani o'qituvchilari, metodistlar va soha mutaxassislari uchun metodik qo'llanma). Ta'lim inspeksiyasi huzuridagi Ta'lim sifatini baholash bo'yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish milliy markazi. – Toshkent, 2019-yil.